

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligida
2025-yil III choragi davomida jismoniy va yuridik shaxslarning vakillaridan
kelib tushgan murojaatlarini ko'rib chiqish natijalari to'g'risida
MA'LUMOT

2025-yil III choragi davomida vazirlik markaziy apparatining departament, boshqarma, bo'lim hamda tizim tashkilotlarida jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish, murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha **muayyan ishlar amalga oshirildi**. Murojaatlarni ko'rib chiqish yuzasidan nazorat ishlarini kuchaytirish hamda qonun buzilishi holatlarining oldini olish bo'yicha tegishli **chora-tadbirlar belgilandi**.

2025-yilning o'tgan davrida jismoniy va yuridik shaxslardan jami **17 561 ta**, shundan bevosita vazirlikka – **5497 ta** (*o'tgan yilning shu davriga nisbatan 11,1 foizga kamaygan*), virtual qabulxona orqali **12 064 ta** (*o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,7 foizga kamaygan*) murojaat kelib tushgan.

Bevosita vazirlikka kelib tushgan **5 497 ta** murojaatdan, elektron murojaatlar - **909 tani (16,5 %)**, yozma murojaatlar – **296 tani (5,4 %)**, og'zaki murojaatlar – **4 292 tani (78,1 %)** tashkil etgan.

Hisobot davrida vazirlik tomonidan **5 407 ta** murojaat ko'rib chiqish uchun nazoratga olingan bo'lib, shundan **4 148 tasi (76,7 %)** qanoatlantirilgan, **1 069 tasiga (19,8 %)** tushuntirish berilgan, **88 tasi (1,6 %)** rad etilgan, **102 tasi (1,9 %)** o'rganish jarayonida bo'lgan.

Murojaatlarning **5 312 tasi (96,6 %)** jismoniy shaxslar va **185 tasi (3,4 %)** yuridik shaxslar hissasiga to'g'ri kelgan.

Shuningdek, hisobot davrida **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonasi** orqali jami **12 064 ta** murojaat kelib tushgan bo'lib, shundan **10 180 tasi (84,4 %)** qanoatlantirilgan, **1 275 tasiga (10,6 %)** tushuntirish berilgan, **21 tasi (0,2 %)** rad etilgan, **23 tasi (0,2 %)** ko'rmasdan qoldirilgan, **565 tasi (4,6 %)** o'rganish jarayonida bo'lgan.